

**MAVZU: YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASINING ISIOHOTLARI**

Termiz davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrası (tojik tili)

ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabasi

Ahadova Farida

Kalit so'zlar: Konstitutsiya , demokratik , qomus , modda ,bob davlat , ijtimoiy, siyosat

O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilinganligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilishni taqozo etgan ikkinchi omil bo'ldi. Konstitutsiya qonunlar majmui emas, u yagona g'oya, mantiq, o'zak, yo'nalish bilan yo'grilgan yaxlit, butkul bir hujjat hisoblanadi. Ana shunday hujjatni yaratish ustida hormay-tolmay mehnat qilgan birinchi Prezidentimiz tom ma'noda uning bunyodkori bo'ldi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov Konstitutsiyasini "Demokratik qomus " deb nomladi. Uning loyihasi ustida ikki yil davomida ishladi degan edi Birinchi Prezidentimiz¹. -U ikki yarim oy mobaynida xalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi va mukammal qonun hujjati hayotga tadbii etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiya nima?" degan savolga javob berishimiz lozim.

Konstitutsiya lotincha "constitution" so'zidan olingan bo'lib, tuzilish, davlatning asosiy qonuni degan ma'nolarni beradi. Konstitutsiya hokimiyat boshqaruvi tizimini, ularning vakolatli hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimida fuqarolarni xalqni erkinligini taminlab beruvchi qonundir. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi 1992 yul 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, u muqaddima, 6-bo'lim, 26-bob, 128-moddadan iborat edi.² 2023 yil 30-aprelda Konstitutsiyamiz yangittan tahrirdan o'tti va u muqaddima, 6-bo'lim, 27-bob va 155- moddadan iborat. Shu vaqtgacha Konstitutsiyamizga 15 marotiba o'zgarishlar kiritilgan. Yangilanish natijasida bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga oshdi, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra Konstitutsiya 65 foizlarga yangilangan. Bunga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

- O'zbekiston huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir.

¹ Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat//O'zbekiston milliy istiqlol, siyosat, mafkurasi. 1-tom 124-bet

² O'zbekiston Respublikasining Kanstitutsiyasi Toshkent <<O'zbekiston>> 2019

Konstitutsiyaning birinchi moddasidagi O'zbekiston suveren demokratik respublikasi jumlasini quyidagicha uzgartilmoqda. O'zbekiston boshqaruvining respublika shakliga ega bulgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Agar bunga izoh bersak:

- Suveren davlat-oz hududida to'la to'kis mustaqil hukmronlik va mutlaqo yurisdiksiyaga ega bulish demakdir.
- Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va oz vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta'minlashini kózda tutadi.
- Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi. Davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy kóz bilan qarash talab etadi.
- Uzbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart sharoit yaratish majburiyatini oladi. Bu degani oddiyroq aytganda eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib farovonlikka erishish imkoniyati bólishi kerak.
- Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bóladir.
- Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan 1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi.
- Boshqacha qilib aytganda bu norma – O'zbekiston hech qachon demokratiyadan vos kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligi nazarga tutadi.

Ma'lumot órnida, dunyoning birinchi qabul qilingan konstitutsiyalardan biri hisoblanmish AQSH konstitutsiyaga 1787-yilda qabul qilinganidan buyon 235-yil ichida 27-marta tuzatish kiritilgan.

Fransiyaning amaldagi konstitutsiyasi 1958-yilda qabul qilingan bólib, hozirgacha unga 24-martda o'zgartirish kiritilgan xolos.

- O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 15 marta ózgartirish va qóshimchalar kiritilgan.

2023-yilda 30-aprelda umumxalq referendumida yangi tahlilda qabul qilingan.

Konstitutsiya davlat huquqiy tizimining yuksak huquqiy kuchga ega bo'lgan asosi hisoblanadi.

Har bir davlatning konstitutsiyasi uning tarixi, madaniyati va siyosiy tizimiga mos ravishda yaratiladi. Davlat faoliyatining turli sohalarida konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. Konstitutsiya o'zining 3 turdagi shakli mavjud, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya —

konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi

Xulosa: Har bir Davlatning Konstitutsiyasi u davlatning bosh qomusidir. Undagi barcha qonun qoidalarga yoshu qari birdek amal qilishi zarur va shartdir.

Shunday qilib, Konstitutsiyaviy huquqning mustaqil tarmog'i u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar turli sohalarga taalluqli bo'lib, Konstitutsiyaviy huquq normalari ularning asoslarini belgilaydi va tartibga soladi.³

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov. "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" //O'zbekiston milliy istiqlol, siyosat, mafkurasi. 1-tom 124-bet
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent <<O'zbekiston>> 2019
3. O.T.Hasanov "Konstitutsiyaviy huquq" (Darslik) Toshkent 2023

³ O.T.Hasanov "Konstitutsiyaviy huquq" (Darslik) Toshkent 2023